


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 6 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 6 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 6

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 6



TOШKENT-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№6 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-6>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

IQTSOD

1. **Boltayev B. Mixliyev O.**
QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....7
2. **Djumabayeva Sh.**
O‘ZBEKISTONDA NIKOH VA AJRALISH JARAYONLARINING IJTIMOY-DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLARI.....11
3. **Raximov Matqurbon Ravshanbek O‘g‘li.**
GLOBALLASHUV SHAROITIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA‘MINLASHNING ZARURATI.....19
4. **Rustamboyev Kamronbek Otabek o‘g‘li.**
O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘LLARI.....24
5. **Курбанова Дилфуза Баходировна.**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ СФЕР УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ.....27
6. **Egamberdiyev Shoxruxbek Davronbekovich.**
KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING XORIJ TAJRIBASI.....33

FILOLOGIYA

1. **Jo‘rayeva Muhayyo Abduljalilovna**
O‘ZBEK VA INGLIZ SO‘ZLASHUV DISKURSIDA DISKURS MARKERLARINING INTERAKTIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....38
2. **Raximova Dilfuza Masharip qizi.**
“XX–XXI ASR BRITANIYA ROMANLARIDA SHARQ VA G‘ARB BADIY TAFAKKURI SINTEZI”.....42
3. **Baxtiyorov Asadbek Dilshod o‘g‘li.**
ANTONIO JENKINSON VA UNING XIVA XONLIGIGA TASHRIFI.....46
4. **Ювашева Шоира Махаматовна**
ВЛИЯНИЕ КУЛЬТУРНЫХ НОРМ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ.....48

PSIXOLOGIYA

1. **Mashhura Sultonova Rustamboyevna.**
YETUKLIK YOSHIDAGI AYOLLARDA O‘Z-O‘ZIDAN QONIQLASH DARAJASIGA PSIXOLOGIK RESURLAR VA QADRIYATLAR TIZIMINING TA‘SIRI.....48
2. **Sherjanova Nodira.**
MIGRANT OILALARDA TARBIVLANAYOTGAN O‘SMIRLARDA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR VA EMPATIYA MUNOSABATI.....52

3. Odamova O'g'iljon Kenjayevna. SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING YUZAGA KELISH SABABLARI.....	58
--	----

TARIX

1. Egamberdieva Nigora Azadovna. Raxmatullaeva Azada. XORAZM VOHASIDA ILK DAVLATNING SHAKLANISHI JARAYONINING TAHLILI (ARXEOLGIK VA YOZMA MANBALAR ASOSIDA).....	63
2. Abdullayev U.I. Kurshat Y. Satimov B. OROLBO'YIDA MUDOFA ISTEHKOMLARNING KELIB CHIQISHI BO'YICHA BA'ZI BIR MULOHAZALAR.....	68
3. Egamberdiyeva Zulfiya Zafar qizi. OLTIN O'RDA DAVRIDA XORAZMDA IQTISODIY HAYOT.....	73
4. Бобожонов У. ҚЎЙҚИРИЛГАН ҚАЛЪА АНТИК ДАВР МАДАНИЙ МЕРОС МАРКАЗИ.....	78
5. Umidbek Abdalov Matniyazovich. Ibodullayeva Oymarjon Shavkat qizi. FROM THE HISTORY OF DIPLOMATIC AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN THE KHIVA KHANATE AND THE RUSSIAN EMPIRE AT THE BEGINNING OF THE 18 th - 20 th CENTURIES.....	82

PEDAGOGIKA

1. Ismoilova Gulnoza Olimboy qizi. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING 4 K KOMPETENSIYALARINI RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA RIVOJLANTIRISH.....	86
2. Yunusxo'jayev Mustafo Zafarxo'ja o'g'li. NAJMIDDIN KUBRO PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA TALABALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI.....	96
3. Radjapova Feruza Abdullayevna. PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI VA ULARNI PEDAGOGIK TA'LIMG A INTEGRATSIYA QILISH ALGORITMI...106	106

IQTISOD


Boltayev Baxriddin

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
v.b dotsenti, i.f.f.d (PhD)

Mixliyev Otabek

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
Iqtisodiyot yo‘nalishi 1-kurs magistranti
<https://orcid.org/0009-004-1070-1465>

**QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA KADRLAR
TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21008319>

Annotatsiya: Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligi sohasini innovatsion rivojlantirish sharoitida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritiladi. Xususan, qishloq xo‘jaligi sohasida innovatsiyalarni joriy etish, raqamli texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv tizimlarini qo‘llash orqali samaradorlikni oshirishda innovatsion bilimga ega kadrlar tayyorlash - bu mamlakatning bugungi kundagi eng dolzarb masalalaridan biri ekanligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar, aqlli irrigatsiya tizimlari, dronlar, biotexnologiyalar, agrosmart, e-learning, dual ta’lim, zamonaviy texnologiyalar.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ
ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы совершенствования системы подготовки кадров в условиях инновационного развития сельского хозяйства, существующие проблемы и пути их устранения. В частности, подчёркивается, что подготовка кадров, обладающих инновационными знаниями, для внедрения инноваций, использования цифровых технологий и современных систем управления в сфере сельского хозяйства с целью повышения эффективности — является одной из наиболее актуальных задач современного этапа развития страны.

Ключевые слова: цифровые технологии, интеллектуальные системы орошения, дроны, биотехнологии, агросмарт, электронное обучение, дуальное образование, современные технологии.

**IMPROVEMENT OF THE PERSONNEL TRAINING SYSTEM IN THE CONTEXT OF
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE**

Annotation: This article highlights the issues of improving the personnel training system in the context of the innovative development of the agricultural sector, identifies existing problems,

and discusses ways to address them. In particular, it emphasizes that training personnel equipped with innovative knowledge for the introduction of innovations, the use of digital technologies, and modern management systems to increase efficiency in the agricultural sector is one of the most pressing issues facing the country today.

Keywords: digital technologies, intelligent irrigation systems, drones, biotechnology, agrosmart, e-learning, dual education, modern technologies.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning asosiy tayanch tarmoqlaridan biri bo‘lib, uni modernizatsiya qilish jarayoni malakali va innovatsion fikrlovchi kadrlarni tayyorlashni talab etadi. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar, aqlli irrigatsiya tizimlari, biotexnologiyalar va zamonaviy boshqaruv usullarining keng joriy etilishi kadrlar tayyorlash tizimini yangicha yondashuv asosida tashkil etishni zarur qilmoqda.

Ayni paytda ta‘lim dasturlarining ishlab chiqarish talablariga mos emasligi, amaliyot bazalarining yetishmasligi va laboratoriyalar infratuzilmasining sustligi sohada muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois qishloq xo‘jaligi sohasida raqamli ta‘lim texnologiyalarini joriy etish, dual ta‘limni kengaytirish va innovatsion tadqiqot markazlarini takomillashtirish orqali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola ushbu yo‘nalishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etishning samarali yo‘llarini yoritadi.

Innovatsiya - bu yangilik kiritish, ilmiy-texnik yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan jarayondir. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Raqamli texnologiyalar asosida yer va suv resurslarini boshqarish;

aqlli irrigatsiya tizimlari;

drondan foydalanish orqali ekinlarni kuzatish va hosildorlikni tahlil qilish;

biotexnologiyalar asosida yangi nav va turlarini yaratish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlashda ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash.

Bu jarayonlarning barchasi innovatsion yondashuvni talab qiladi, Demak, shu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar ham zamon bilan hamnafas bo‘lishi zarur.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasida oliy ta‘lim muassasalari va kasb-hunar ta‘lim tizimi orqali mutaxassislar tayyorlab kelinmoqda. Jumladan, Toshkent davlat agrar universiteti, Samarqand davlat universitetining agrotexnologiyalar fakulteti, Andijon qishloq xo‘jaligi instituti, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti kabi o‘quv muassasalari soha uchun kadrlar yetkazib bermoqda.

Shunga qaramay, hozirda ayrim muammolar mavjud:

O‘quv dasturlarining ishlab chiqarish amaliyotiga to‘liq mos kelmasligi;

Innovatsion texnologiyalar bo‘yicha laboratoriya bazasining yetarli emasligi;

Amaliyotchi mutaxassislar bilan o‘zaro hamkorlikning sustligi;

Talabalar uchun amaliy o‘quv maydonchalari va fermer xo‘jaliklarida tajriba almashish imkoniyatining cheklanganligi.

Innovatsion rivojlanish davrida kadrlar tayyorlash tizimi quyidagi yo‘nalishlarda yangilanishi kerak:

1. Raqamli ta‘lim texnologiyalarini joriy etish. Zamonaviy ta‘lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish ta‘limni yanada interaktiv, individual va samarali qilishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv asosiy g‘oyasi - an‘anaviy o‘qitish metodlarini raqamli vositalar bilan boyitish, shu jumladan kompyuter dasturlari, mobil ilovalar, virtual laboratoriyalar, onlayn platformalar va simulyatsion treninglardan foydalanishdir.

Raqamli ta‘limning foydali tomonlari ko‘p qirralidir. Avvalo, geografik va vaqt chegaralaridan qat‘i nazar ta‘limga kirish imkoniyati kengayadi. Shuningdek, o‘quv jarayonini real vaqtda monitoring qilish, bilim darajasini baholash va individual yondashuvni qo‘llash imkoniyati paydo bo‘ladi. Masalan, “AgroSmart”, “e-Learning” kabi platformalar orqali masofaviy ta‘limni rivojlantirish;

2. Dual ta'lim tizimini kengaytirish. Dual ta'lim tizimi - bu o'quv jarayonini nazariy bilim va amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan ta'lim modeli. Ushbu yondashuv asosiy g'oyasi shundaki, talabalar nafaqat maktab yoki universitetda nazariy bilim oladi, balki ish joylarida amaliy tajriba orttiradi. Bu tizim o'quv jarayonini real ish sharoitlariga yaqinlashtirib, talabalarni bozor talablari bilan moslashishga tayyorlaydi. Dual ta'lim tizimi, shuningdek, o'quv jarayonini individual yondashuvga moslashtirish, zamonaviy texnologiyalar va ilg'or boshqaruv usullarini joriy etish orqali samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bu tizim mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va innovatsion salohiyatini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

3. Innovatsion tadqiqot markazlarini takomillashtirish. Innovatsion tadqiqot markazlari - bu ilmiy izlanishlarni amaliy ishlab chiqarish va iqtisodiy rivojlanish bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladigan muassasalar. Ularning asosiy maqsadi - yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratish, sinovdan o'tkazish va ularni sanoat va qishloq xo'jaligi kabi sohalarga joriy qilishdir. Tadqiqot markazlarini takomillashtirish esa ularning samaradorligini oshirish va mamlakatning innovatsion salohiyatini kuchaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: ilg'or ilmiy uslublar va texnologiyalarni joriy etish, malakali kadrlarni tayyorlash, laboratoriya va sinov infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, xalqaro hamkorlik va grant loyihalarini kengaytirish. Bu esa markazlarni global standartlar darajasiga olib chiqish va innovatsion mahsulotlarni yaratish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi;

4. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va kuchaytirish mamlakatning ilmiy, ta'lim va iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu yondashuvning asosiy g'oyasi - xalqaro ilmiy va ta'lim tashkilotlari, korxonalar va tadqiqot markazlari bilan samarali aloqalarni o'rnatish, tajriba almashish va qo'shma loyihalarni amalga oshirishdir. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirishning boshqa foydali jihatlari ham mavjud. Bu mamlakatning ilmiy va ta'lim tizimini global standartlarga moslashtirish, yetakchi mutaxassislarni jalb qilish va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etishni osonlashtiradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmon va qarorlari asosida agrar sohada innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmogda. Jumladan:

2020-2030-yillarga mo'ljallangan "Qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi";

"Raqamli O'zbekiston - 2030" dasturi;

"Agrosanoat majmuasini innovatsion rivojlantirish konsepsiyasi".

Bu hujjatlar qishloq xo'jaligini barqaror, samarali va raqamli asosda rivojlantirish bilan bir qatorda, zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashga ham asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Toshkent davlat agrar universitetida "Agroinnovatsiyalar markazi" faoliyat boshladi, bu markaz ilmiy-amaliy izlanishlarni ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar:

- Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion modullar asosida o'quv dasturlarini yangilash;
- Amaliyot va tajriba o'tkazish bazalarini kengaytirish, jumladan, innovatsion fermer xo'jaliklari bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- O'qituvchilarning malakasini oshirish – ularni xorijiy agrar markazlarda stajirovkalarni tashkil etish;
- Tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish, yosh olimlar uchun grant va loyihalarni kengaytirish;
- Talabalarda innovatsion fikrlashni shakllantirish uchun startap va inkubatsion markazlarni tashkil etish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish sharoitida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish - nafaqat ta'lim tizimining, balki butun agrar tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim omilidir.

Malakali, innovatsion tafakkurga ega mutaxassislar qishloq xo'jaligida yangi texnologiyalarni samarali joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.

O‘zbekiston sharoitida kadrlar tayyorlash tizimini zamon talablariga moslashtirish, o‘quv jarayoniga innovatsion va raqamli yechimlarni joriy etish, xalqaro tajriba asosida o‘qituvchilarning malakasini oshirish orqali agrar sohaning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. O‘zbekiston Respublikasida Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi 2020-2030 yillar.
3. Sh. Mirziyoyev - Yangi O‘zbekiston strategiyasi, Toshkent, 2021.
4. A.V.Vakhabov, Sh.A.Mamatqulov, U.G‘ulomov - Innovatsion rivojlanish nazariyasi va amaliyoti, Toshkent, 2021.
4. I. Karimov “Innovatsion rivojlanish va kadrlar siyosati”, TDIU, 2023.
5. M.Yo‘ldoshev, N. Karimov - Innovatsion iqtisodiyot asoslari, Toshkent, 2020. Innovatsion iqtisodiyotning nazariy asoslari, texnologik yangiliklarni joriy etish mexanizmlari bayon etilgan.
6. OECD (2023). Agricultural Innovation Systems.
7. Hu, Y., Wang, Y., & Zhang, L. (2023). Can rural human capital improve agricultural ecological efficiency? *Sustainability*, 15(16).
8. Gutiérrez Cano, L. F., Casas, A. F., & Rivera, M. (2023). Agricultural innovation system: Analysis from the perspective of training and education processes. *Frontiers in Sustainable Food Systems*, 7, 1176366.
9. Kurtsal, Y., Rinaldi, G. M., Savini, F., Sirri, R., Melin, M., Pacetti, E., De Cesare, A., Fioravanti, M., Luppi, E., Manfreda, G., & Viaggi, D. (2024). Improving the education and training policies of the agri-food and forestry sectors: Identifying new strategies to meet the needs of the sector and Farm-to-Fork priorities. *Sustainability*, 16(3), 1267.
10. Charatsari, C., Lioutas, E. D., & Koutsouris, A. (2024). Does higher agricultural education supply students with competencies needed for digital agriculture? *Proceedings*, 94(1), 1.
11. Baiyegunhi, L. J. S., & Fraser, G. C. G. (2024). Examining the impact of human capital and innovation on agricultural productivity among smallholder farmers. *Development Southern Africa*, 41(5), 1–18.
12. Yameogo, V., Zossou, R. C., Daum, T., Scheiterle, L., Adegbola, Y. P., Daudu, C., Kergna, A. O., Mulinge, W., Nientao, A., Angara, U. S., Fatunbi, O., & Birner, R. (2024). Moving from productivity to sustainability in agricultural education? Perspectives from students and teachers in four African countries. *University of Hohenheim Working Paper No. 023-2024*.

boshlab, ma'naviy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish, ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirish, refleksiv-metagognitiv o'sish va dunyoqarash transformatsiyasigacha bo'lgan izchil jarayonni qamrab oladi.

Birinchi bosqich – qadriyatlarni anglash va o'zlashtirish. Bu bosqichda talaba ma'naviy-axloqiy tushunchalarni shaxsiy hayot va kasbiy faoliyat uchun muhim tamoyillar sifatida qabul qiladi. Halollik, adolat, shukronalik, vafodorlik, mehribonlik, kamtarlik va sabr kabi sifatlarning mazmunini anglash talabaning keyingi rivojlanishi uchun poydevor bo'ladi. Agar qadriyatlar ongli ravishda o'zlashtirilmasa, ular xulq-atvorda barqaror namoyon bo'lmaydi. Shu sababli modelda qadriyatlarga oid muloqot, hikmatlar tahlili, badiiy-pedagogik matnlar, tarixiy misollar va refleksiv savollar muhim vosita sifatida qo'llanadi.

Ikkinchi bosqich – ma'naviy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish. Bu bosqichda qadriyatlar amaliy ko'nikma va xulq-atvor sifatida namoyon bo'la boshlaydi. Talaba axloqiy vaziyatlarda qaror qabul qiladi, o'z fikrini asoslaydi, boshqalarning nuqtayi nazarini hurmat qiladi, adolatlilik muloqotga kirishadi va o'z harakatining oqibatini baholaydi. Mazkur kompetensiya pedagogik kasb uchun ayniqsa muhim, chunki o'qituvchi o'z shaxsiy namunasi orqali o'quvchilarga ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi bosqich – ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirish. Najmiddin Kubro merosida insonning kamoloti jamiyat bilan aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Shaxsning ichki pokligi uning boshqalarga bo'lgan munosabatida, muloqot odobida, hamkorlikda, insonparvarlikda va fuqarolik mas'uliyatida ko'rinadi. Shu sababli talabalarda ijtimoiy-kommunikativ sifatlarni rivojlantirish ma'naviy tarbiyaning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

To'rtinchi bosqich – refleksiv-metakognitiv rivojlanishni faollashtirish. Bu bosqichda talaba o'z xatosini ko'ra olish, uni tan olish, tuzatish, kelgusi rivojlanish maqsadini belgilash va o'z ustida ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Najmiddin Kubro ta'limotidagi tavba va o'zini tahlil qilish g'oyalari aynan shu bosqichning nazariy asosini tashkil etadi. Pedagogik amaliyotda bu bosqich portfoliolar, o'z-o'zini baholash varaqalari, refleksiv esselar va individual rivojlanish xaritalari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Beshinchi bosqich – dunyoqarash transformatsiyasi va komil inson idealiga yaqinlashish. Bu bosqichda talaba bilim, qadriyat, tajriba, refleksiya va ijtimoiy mas'uliyatni yagona hayotiy pozitsiyaga birlashtiradi. Komil inson ideali zamonaviy pedagogik ta'limda axloqiy mas'uliyatli, kasbiy kompetent, insonparvar, ijtimoiy faol va o'z ustida ishlaydigan shaxsni tarbiyalash maqsadi bilan uyg'unlashadi.

2-jadval. Ma'naviy rivojlanish blokida shakllantiriladigan ijobiy sifatlar va ularning salbiy muqobillari

Ijobiy sifat	Pedagogik mazmuni	Salbiy sifat	Tarbiyaviy xavf
Halollik	Rostgo'ylik, vijdonlilik va haqiqatga sodiqlik.	Yolg'onchilik	Ishonchning yo'qolishi va axloqiy beqarorlik.
Mas'uliyat	Vazifa va burchni ongli bajarish.	Mas'uliyatsizlik	Burchga loqaydlik, kasbiy sustlik.
Insonparvarlik	Boshqalarga hurmat, mehr va yordamga tayyorlik.	Shafqatsizlik	Inson manfaatiga befarqlik.
Kamtarlik	O'zini yuqori qo'yimaslik, oddiylik.	Kibr	Boshqalarni mensimaslik.
Sabr-toqat	Qiyinchilikni matonat bilan yengish.	Sabrsizlik	Shoshqaloqlik, hissiy beqarorlik.
Bag'rikenglik	Turli fikr va qarashlarni hurmat qilish.	Murosasizlik	Nizo va inkor kayfiyati.
O'zini nazorat qilish	Nafs, hissiyot va xatti-harakatni boshqarish.	Nafsga berilish	Hirs va impulsiv qarorlar.
Ilmga intilish	Bilim olish va o'zini rivojlantirishga ehtiyoj.	Johillik	O'rganishga befarqlik.